

TANA HARORATINI O'LCHASH, TOMIR URISHI VA NAFAS OLISHNI BAHOLASHDA HAMSHIRANING VAZIFALARI

Eraliyev Oblaqul Botirovich

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi

jamoat salomatligi texnikumi

Hamshiralik ishi kafedrasи mudiri

Raimova Dilrabo Pozilovna

Bekmurodova Shoxida Gulmurod qizi

Pastdarg'om Abu Ali ibn Sino nomidagi

jamoat salomatligi texnikumi o'qiyuvchilarи:

Annatatsiya:

Ushbu maqolda tana haroratini o'lchash, tomir urishi va nafas olishni baholashda hamshiraning vazifalari, bemorlarga tashxislari, tana harorati yuqori bo'lganda birinchi yordam ko'rsatish haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Harorat, tomir urishi, nafas harakatlari, muolaja, gipotermiya, selsiy, farengeyt, vanna va boshqalar.



NURSING DUTIES IN ASSESSING TEMPERATURE, PULSE AND RESPIRATION

Anatation:

This article describes the duties of a nurse in measuring body temperature, assessing pulse and respiration, diagnosing patients, and providing first aid in case of high body temperature.

Keywords: Temperature, pulse, respiratory rate, treatment, hypothermia, Celsius, Fahrenheit, bath, etc.

Mamlakatimizda tibbiyot sohasini rivojlantirish, jumladan, bolalaraholi orasida surunkali kasalliklar tarqalishini, ularning asoratlarini kamaytirish va oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda aholida sog'lom turmush tarzini shakllantirish borasidagi ishlarni yanada jadallashtirish, kasalliklarni erta aniqlash va davolashning ilg'or tajribasini joriy etish kabi vazifalar belgilangan.

Harorat, tomir urishi va nafas harakatlari bemor holatini baholash-ning asosiy ko‘rsatkichlari hisoblanishi sababli amaliyot hamshirasi ularni aniq o‘lhash va qayd etishni bilishi juda muhimdir. G‘arb tibbiy muassasalarida bu turdagи muolajalarni professional tibbiy personal ham, mutaxassis bo‘lmagan tibbiy personal ham bajaradi, muolaja texnikasi ular tomonidan bir xil bajariladi. Shunday boisada, profesional hamshiraga ko‘rsatkichlardagi me’yordan chetga siljishni bilish katta ma’suliyat yuklaydi, chunki o‘lhash natijalarini sharhlash va baholash ana shu siljishlarga asoslanadi.

Hamshira tashxislari: Asosiy va ko‘p qo‘laniladigan hamshira tashxislaridan biri gipertermiya hisoblanadi. Bemorda harorat turli omillar: infeksiya, suvsizlanish, jismoniy zo‘riqish yoki atrof muhitning juda yuqori harorati ta’siri oqibatida yuzaga kelishi mumkin. Yana boshqa bir tashxis “gipotermitiya” yoki “tana haroratining pasayishi” deb ataladi va bu holatning paydo bo‘lishiga sababchi omillarga atrof muhit yoki nomunosib kiyinish, shuningdek ovqatlanishning buzilishi yoki suvsizlanish kiradi. Xavf omillari mavjudligida, tashxis “gipotermitiya yuzaga kelish xavfi” yoki “gipotermitiya yuzaga kelish xavfi” deb ifodalanadi.

Tana harorati - bu organizm ishlab chiqarayotgan va ajratayotgan issiqlik o‘rtasidagi balansdir. Sog‘lom insonlarda bu juda yaxshi muvofiqlashtirilgan jarayondir. Tana haroratini o‘lhash selsiy yoki Farengeyt shkalasi bo‘yicha amalga oshiriladi.

Selsiy (C) shkalasi bo‘yicha 36,1°C - 37,2°C atrofidagi tana harorati sog‘lom insonlar uchun normal hisoblanadi. Olimlar uzoq yillar davomida katta yoshli insonlarda o‘rtacha tana haroratini o‘rgandilar va bu ko‘rsatkich 36,8°C bo‘lib chiqdi. Tana haroratini o‘lhashda qaysi shkaladan foydalanshasin, insonlarda harorat ko‘rsatkichlardagi o‘zgarishlar ular sog‘ligi holatining muhim belgilardan biri hisoblanadi.

Bir kechayu kunduz (sutka) mobaynida tana haroratidagi fiziologik o‘zgarishlar organizmning sirkad (aylanma) ritmi natijasi hisoblanadi. Eng past tana harorat tungi soat 2.00 va 6.00 orasida va eng yuqori kechki soat 16.00 va 20.00 orasida kuzatiladi. Keksa sog‘lom insonlarda og‘iz (oral) haroratini o‘lhash tananing normal harorati yoshi o‘tgan sayin pasayishini ko‘rsatdi. Bundan tashqari keksa insonlarda organizmdagi infektsion jarayon har doim ham tana harorati ko‘tarilishi bilan birga kechmaydi. Hamshiralar bemorlami parvarishlashda to‘g‘ri harakat qilishlari uchun alohida har bir insonda, xususan, keksalarda qanday harorat normal hisoblanishini bilishlari lozim.



Agar tana harorati yuqori bo'lsa nima qilish kerak?

1. Birinchidan, haroratning darajasi aniqlanib, alomatlarni baholash zarur. Agar termometr ko'rsatkichi 38 va undan yuqori darajani ko'rsatsa, bunga jiddiyroq e'tibor berish kerak. Qo'lтиq osti sohasi esa 37 darajadan keyin o'sishni aniqlaydi.
2. Iloji boricha o'rindan turmaslik va dam olish tavsiya etiladi. Sababi tana infeksiyaga qarshi kurash olib bormoqda. Va bu jarayonda tanani ortiqcha zo'riqtirmaslik zarur.
3. Tananing suvsizlanishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Ko'proq oddiy suv, choy yoki suyultirilgan sharbat ichish terlash natijasida yo'qotilgan suyuqlik o'rmini to'ldirishga yordam beradi. Agar ichish biroz qiyinchilik tug'dirsa, muz bo'laklarini vaqtı-vaqtı bilan tana qismlariga qo'yib, eritish mumkin.
4. Shuningdek, harorat tushirishning yana bir samarali usuli – isitma tushiradigan dori vositalaridir. Lekin dozani oshirib yubormaslik zarur. Ayniqsa, bir vaqtning o'zida bir necha xil isitma tushiruvchi dori vositalarini qo'llash aslo mumkin emas. 6 oygacha bo'lgan chaqaloqlarga ibuprofenli dori bemaslik kerak. Shu bilan birga, o'spirin va kattalar esa aspirinni shifokor retseptisiz qabul qilishi mumkin emas.
5. Bemor ustidagi issiq kiyimlarni va o'ranib yotgan yopinchiqlarni biroz kamaytirishi hamda tanani biroz sovishiga imkon berishi muhim.
6. Iliq vanna, tanani namlangan mato bilan artish yoki sovuq kompresslar ham yordam beradi. Muzli yoki sovuq suvda vanna qilish, spirt yoki sirkali hammom xavfli bo'lishi mumkin. Bunday davolash usulidan foydalanmagan ma'qul. Agar alomatlar kuchaygudek bo'lsa, shifokorga murojaat qilish zarur.

Tomir urishi va nafas chastotalarining o'rtacha yoshga bog'liq ko'rsatkichlari

Yoshi	Tomir urishi	Nafas harakatlarining soni
Chaqaloq	120	35
4-yosh	100	23
8-yosh	90	20
14-yosh	85	20
Katta yoshli	70	18

Xulosa qilib atganda hamshira nafasning chuqurligi va xarakterini kuzatib turishi va ta'riflab berishi lozim. Respirator va metabolik kasalliklar, shuningdek boshqa o'tkir va surunkali tibbiy muammolar nafasning o'zgarishiga sabab bo'lishi mumkin. Ba'zida ko'krak qafasining tomonlari nosimmetrik ko'tarilishi va tushishi mumkin.



Baholash

Hayotiy muhim faoliyat ko‘rsatkichlarini o‘lchash uchun shifokor ko‘rsatmasi zarur emas. Hamshira bemorning umumiyligi holatini baholash uchun uning tomir urishi, tana harorati va nafas olishini o‘z ixtiyoricha o‘lchashi mumkin. Biroq bemoming holati jiddiy bo‘lsa, shifokor asosiy ko‘rsatkichlami tez-tez o‘lchab turishga ko‘rsatma beradi. Xirurgik operatsiyadan keyin, tiklanish fazasida hayotiy muhim ko‘rsatkichlarni oichash har 15 daqiqada bemor holati barqaror bo‘lgunga qadar bajariladi. Yuqori haroratlari bemorda bu muolajani har soatda bajaran. Agar bunday bemorga harorat tushiruvchi vosita tayinlangan boisa, uning ta’sirini aniqlash uchun har 30 daqiqada haroratni o‘lchab turing.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.A.Shomansurova, Ch.D.Bo’tayev OILA TIBBIYOTIDA HAMSHIRALIK ISHI O’quv-uslubiy nashr Toshkent “Yangi asr avlod” 2008
2. Ахмедов Р.М., Шарипова Н.Д. Современные подходы в подготовке врача общей практики. Ташкент, 2007.
3. Ahmedov R.M., Sharipova N.J. «Umumiyligi amaliyot shifokorlari tayyorlashda zamonaviy yondoshuvtar». — Toshkent, 2010.
4. Бабаджанов С. Н . Справочник физиотерапевта. — Ташкент, «Абу Али ибн Сино», 1999.

